



## O'G'IL BOLALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK OMIL VA VOSITALARI.

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И СРЕДСТВА ПОДГОТОВКИ МАЛЬЧИКОВ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ.

### PEDAGOGICAL FACTORS AND TOOLS OF PREPARING BOYS FOR FAMILY LIFE.

Ismoilov Muhammadjasur G'anijon o'g'li

Jismoniy madaniyat fakulteti 22.156-guruh talabasi

**Annotatsiya** Mazkur maqola o'g'il bolalarning oilaviy hayotga tayyorlashda pedagogik omil va vositalari, tarbiyaviy qadriyatlari, insoniy fazilalari, bir-birlariga bo'lgan do'stona munosabatlari, o'z qarash va e'tiqodlari, oila va nikoh munosabatalraini o'z ichiga oladi.

**Аннотация** В данной статье рассмотрены педагогические факторы и средства подготовки мальчиков к семейной жизни, воспитательные ценности, человеческие добродетели, дружеские отношения друг с другом, их взгляды и убеждения, семейно-брачные отношения.

**Abstract** This article includes pedagogical factors and means of preparing boys for family life, educational values, human virtues, friendly relations with each other, their views and beliefs, family and marriage relations.

**Kalit so'zlar:** o'g'il bolalar, oila, qadriyat, omillar, vositalar, nikoh, e'tiqod, fazilat, tarbiya, urf-odat, mexr-muhabbat, an'analar va ijtimoiy faollik.

**Ключевые слова** мальчики, семья, ценности, факторы, средства, брак, вера, добродетель, воспитание, обычай, привязанность, традиция и социальная активность.

**Key words:** boys, family, value, factors, means, marriage, faith, virtue, upbringing, custom, affection, tradition and social activity.

Hozirgi kunda o'g'il bolalarning oilaviy hayotga tayyorlashda pedagogik omil va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.. O'g'il bolalarning o'zlarini qiziqtirgan muammolar haqida ijodiy, mustaqil, erkin fikr yuritadalar, oila va nikoh masalasida fikr almashadilar, xalqimizning tarbiya tajribalari, oilalarning tarbiyaviy qadriyatlardan o'z chiqishlarida foydalanadilar. O'g'il bolalarning o'z qarashlari va e'tiqodlarini asoslash, boshqalarning fikrini tanqidiy baholash, do'stlarning qarashlarini tahlil etishga o'rGANADILAR. Mashg'ulotlarda va auditoriyadan tashqari tadbirlarda ta'lim metodlari bilan birga tarbiyaning ishontirish metodi (ongning shakllanishi), faoliyatni tashkil etish (tajriba hosil qilish), o'g'il bolalarning xulqini rag'batlantirish va boshqalardan ham foydalaniladi. Bunda haqiqiy hayotdan



olingo ideallar, namunalarga tayaniladi. Zero, mazkur ideallar va namunalar asosida olib borilgan mashg'ulotlar o'g'il bolalarning ongida tasavvurlar hosil qilishga yordam beradi. O'g'il bolalarning faoliyati pedagogik muammoli vaziyatlar yaratishda samarali natijalar beradi. Oilaviy tarbiyaga doir muammoli vaziyatlarni yechish suhbatlar, rolli o'yinlar asosida tashkil etilganligi muvaffaqiyatli bo'ladi. Muammoli vaziyatlarda rag'batlantirish va kelajak yo'llini ko'rsatish oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida, guruhda o'g'il bolalarning ning bir-biriga do'stona munosabatlarida namoyon bo'ladi. Biz talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy qadriyatlardan foydalanib, hozirgi davrdagi oila maqomini takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasi prezidenti ta'kidlagan dolzarb masalalarni asos qilib oldik. Har bir insonga vatan tuyg'usi ana shu oiladagi ona suri bilan kirib, keyinchalik undagi an'analar, ota-onaning kasb-kori, mehr-muruvvati, tarbiyasi bilan shakllana boradi.

Inson ota-onas timsoldida millati, boy milliy qadriyatlar bilan faxrlanib, bu tuyg'ular bog'cha va umumiyl o'rta ta'lim maktabi, so'ngra oliy o'quv yurtlarida shakllanadi. Oliy o'quv yurtlarida esa ijtimoiy-gumanitar fanlarni hamda aniq fanlarni o'qitishda ularning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda: Vatanga muhabbatning asl mohiyatini tushuntirish orqali vatanfurushlik, vatanga xiyonat kabi razil illatlarning paydo bo'lismiga sabab bo'lgan ildizlarni qirqish; Vatan tuyg'usini mustaqillikning asl mohiyatini anglash bilan uyg'un holda tushunish; Vatanning muqadasligini onaning muqaddasligi kabi anglash; Vatanparvarlik o'z oilasi, vatanga hurmat, muhabbat tuyg'usi ekanligini, ularning ravnaqi yo'lida faollik ko'rsatish zarurligini talaba-yoshlarga yetkazishda "o'zga yurtda sulton bo'lguncha, o'z yurtingda cho'pon bo'l", "o'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtingda gado bo'l!", "ona yurting omon bo'lsa, rangi-ro'ying somon bo'lmas", "vatanni sevmoq- iymondandir" kabi maqol va hikmatlarning maqol va hikmatlarning mazmun - mohiyatini tushuntirish, buyuk allomalarning, fan va jamoat (davlat) arboblarining hayotidan hikoyalar keltirish orqali singdiriladi. Bundan tashqari vatanparvarlik o'z -o'zidan tarbiyalanmaydi. Talaba-yoshlarni oila vatanparvari qilib tarbiyalashda quyidagilarga amal qilish lozim: Xalqimizning milliy qadriyatlar bo'l mish jismoniy chiniqtiruvchi o'yinlardan foydalanish; Talaba - yoshlar ishtirokida o'lakashunoslik ishlarini keng yo'lga qo'yish; Har bir o'quv yurtida milliy kasb-hunar sirlarini o'rgatishga doir faoliyatni keng joriy qilish; Sport musobaqalari, qo'shiq, san'at bayramlari, iqtidorli ijodkor yoshlar bilan o'tkaziladigan ijodiy kechalar, yoshlar muammosiga bag'ishlangan maxsus teleko'rsatuv va radioeshittirishlar, ekskursiyalari tashkil etish;

Oilaviy tanlovlar hamda hujjatli filmlar tashkil etib, ularda o'g'il bolalarning ning faol ishtirok etishiga erishish; Ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlik, ma'naviy qashshoqlikning oldini olish maqsadida maxsus "Tarbiya dars" o'tkazish; muzey va tarixiy qadamjolarga sayohatlar O'zbekiston qahramonlari, Xalq og'zakijodi, O'zbek milliy hunarmandchilik



namunalarini o'rganish va kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida ilmiy ekspeditsiyalar uyuşdırış va hokazo. Talaba-yoshlarni oila an'analari, shajarası, kasb-kori, ma'aviy-axloqiy qadriyatları asosida tarbiyalash, ular ongida oilaga sadoqat, o'zaro mehr-muhabbat, hurmat hissini shakllantirish orqali oilaviy hayotga tayyorlash samarali natija beradi. Buning uchun oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lif va pedagogika-psixologiya yo'nalishlarida kurslarida "Tarbiya va uni o'qitish metodikasi", orqali "Oila muqaddas", "Mahalla demokratiya darsxonasi" mavzularining atroflicha o'rganilishi talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, "Oila" jurnalini nashr etish, "Oila psixologiyasi va pedagogikasi" kursining kiritilishi ham oila muammolarini hal qilishda yordam beradi. Ma'lumki, yoshlarning yot ta'sirlarga berilib ketishi natijasida, avvalo, oilalar, ota-onalar va ularning bolalari aziyat chekadilar. Shuning uchun bugungi kunda jamiyatni sog'lomlashtirishda, ayniqsa, talaba-yoshlarning yot ta'sirlarga va virtualashuvga berilib ketishidan ehtiyyot bo'lish, bu xavflardan asrash uchun o'g'il bolalarning ga chuqur bilim berish asosida ularni ongli ravishda kurashishga yo'llash lozim. Avvalo, o'g'il bolalarning hozirgi davrda jamiyatimizga xavf solayotgan mafkuraviy tahdidlarning asl mohiyatini tushunib olishlari zarur. Ma'naviy-ma'rifiy sohada ajdodlarimizning ibratlari, yurtimiz ozodligi va mustaqilligi yo'lidagi jasoratlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar misolida zamonaviy bilimlarni egallash va shu orqali yoshlarning ongiga "Vatan menga nima berdi?" deb emas, "Men xalqim, vatanim uchun nima qilmoqdaman?", "Vatan yagonadir, vatan bittadir" degan qarashlarni, "Bu davlat meniki bo'lsa, shu yurt meniki bo'lsa, uning farovonligi, yorug' istiqboli uchun,

avvalo, o'zim kurashishim kerak" degan g'oyani singdirish kerak. Buning uchun ta'sirchan ma'naviy-ma'rifiy tarbiya usullari, ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanish, har bir yoshning ishda, shaxsiy va ijtimoiy hayotida barcha yoshlarga namuna bo'lishga erishish muhim vazifalardandir. Buyuk mutafakkirlarimiz, mumtoz allomalarimiz tomonidan yaratilgan boy ilmiy merosimiz, shuningdek, ilm fan va texnika taraqqiyoti, zamonaviy, falsafiy ilmlarni chuqur o'rganish, ularni uyg'unlashtirgan holda yosh avlod dunyoqarashini shakllantirish, diniy bag'rikenglik, yoshlarning diniy bilim ma'lumotga ega bo'lishlari asosida jamiyatda diniy ayirmachilikka yo'l qo'ymaslik, dunyoviy va diniy qarashlar hamda aqidalarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga yo'l bermaslik ruhida tarbiyalash zarur. Turli zararli g'oya va mafkuralar, yozuv kuchlarga qarshi kurashish, yoshlarga tinchlik va totuvlikni qadrlash madaniyatini shakllantirish, sog'lom turmush tarzini vujudga keltirishga ko'maklashish ham dasturda nazarda tutilgan. Yosh iste'dodlarni izlab topish va ularni qo'llab-quvvatlash hamda talaba-yoshlar o'rtasida jinoyatchilik, diniy aqidaparastlik, giyohvandlik, loqaydlik kabi turli illatlarga qarshi kurashish, vatanimiz boyliklarini saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilishni, sog'lom turmush tarzini



targ'ib qilish lozim. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada esa yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o'rgatish va unga milliy an'analarimiz, ustoz-shogird tajribasidan foydalanish, yoshlarni boqimandalik kayfiyatidan xalos etish, bozor iqtisodiyoti ko'nikmalari, mulkka egalik kilish shakllantirish, oliy o'quv yurtini tugatayotgan yoshlarni ish bilan ta'minlash uchun imkoniyatlardan foydalanish va yangicha fikrlaydigan mulkdorlarni tarbiyalash, "yosh oila" dasturini ishlab chiqish asosida ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvatlash, ko'maklashish, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, talaba-yoshlarning zamonaviy iqtisodiy bilimlarni egallashlari uchun shart-sharoit yaratish asosiy vazifalardandir.

O'zbeklar qadimdan mehmondo'st xalq hisoblangan. Mehmondo'stlik me'yorini hozirgi kunda diplomatik aloqalar, bag'rikenglik, hamjihatlik, do'stlik, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik tamoyillari darajasiga ko'tarish maqsadga muvofiqdir. Milliy qadriyatlar yosh avlodda hayot va turmush estetikasi hamda uni avaylab asrashga muhabbat tuyg'ularini ham tarbiyalab kelgan. Hozirgi davrda zamonaviy binolarni bezashda xalqimizning milliy me'morchilik va boshqa san'at namunalaridan foydalanilmoqda. Xalq musiqa san'atining ravnaqi ham uning boy va zamonaviyligidan dalolat beradi. Xalqimiz yoshlarni tabiatni sevish, uni avaylab-asrash ruhida tarbiyalashga ham e'tibor bergen. Hozirgi davrda tabiat va inson munosabatlarini aniqlash, uni muhofaza etish va saqlashda ham bu xislatlarni rivojlantirish katta ahamiyatga ega ekanligini talaba yoshlarga uqtirish lozim.

Milliy qadriyatlarda juda ko'p milliy urf-odatlar, an'analar va marosimlar borki, ularni o'rganish va zamon ruhiga mos ravishda davom ettirish zarur. Farzand tug'ilishi, to'y-hashamlar, aza bilan bog'liq urf-odatlar shular jumlasidandir. Suyunchi, chaqaloqni cho'miltirish, yangi farzand ko'rgan onani parvarish qilish, bolaning o'smir va o'spirinlik davrida eyish va ichishi, kiyinishi, gigienik talablarga rioya etishi kabi tamoyillar talaba yoshlar hayotining eng muhim qirra ekanligiga e'tibor berishimiz kerak. Shu bilan birga, unutilib ketayotgan motam urf-odatlari hamda marosimlari va ularning qoidalari o'g'il qizlarga tanishtirish ham muhimdir. Chunki yoshlar oilada o'tkaziladigan rasm-rusumlarni hamma vaqt ham bilavermaydilar. Masalan, marhumni dafn etish bilan bog'liq talab va odatlar, qoidalar juda ko'p. Ana shularni ularga katta yoshlilar o'rgatishlari zurur. Milliy qadriyatlarda eng qadrlanadigan xislatlardan yana biri bilim olish va aqliy tarbiyadir. Ilmiylilik va aqliy tarbiyaning asosi kitobxonlik hisoblanadi. Kitobxonlik avloddan avlodga o'tib kelgan an'ana. Oila davralarida bedilxonlik, fuzulixxonlik, navoiyxonlik, dostonlar aytish, keksa buvilarning ertaklar aytib berishlari, qizlar davralarida she'rxonliklar bularning barchasi badiiy adabiyot, kitob, kitobxonlikka, qiziqish uyg'otgan, yoshlarning aqlini charxlagan. Xozirgi davrda ham bu an'analarni takomillashtirish, kitob va kitobxonlikni rivojlantirish zarur. Demak, biz yuqorida keltirgan fikrlardan ayon bo'ldiki, milliy qadriyatlar yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim manba hisoblanadi. Qadimiyl oila an'analari va urf-odatlari xozirgi yangilari bilan qo'shilib, uyg'unlashib borar ekan, bu



jarayon yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda samarali natijalar berishi muqarrar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dilshodovich, I. S. (2022). O'G'IL BOLALARNING DA FAMILISTIK KOMPETENSIYANING SHAKLLANTIRISHNING XUQUQIY ASOSI SIFATIDA. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 1210-1215.
2. Dilshodovich, I. S. (2023). O'G'IL BOLALARNING NING FAMILISTIK KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(18), 874-879.
3. Dilshodovich, I. S. (2022). O'G'IL BOLALARNING NI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA MILLIY URF-ODAT VA AN'ANALARDAN FOYDALANISH. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 476-479.
4. Dilshodovich, I. S. (2022). OF PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE CONTENT AND LEPROSY. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(2), 117-123.
5. Dilshodovich, I. S. (2023). DIDACTIC POSSIBILITIES OF FORMATION OF FAMILIAR COMPETENCE IN ADOLESCENT BOYS. *European journal of education and applied psychology*, (1), 3-6.
6. Tuychieva, I. I. (2018). Mechanisms Ensuring Children's Thought Activity Development at Preschool Education Process. *Eastern European Scientific Journal*, (6).